

**O'QUVCHILARNI NAVOIY DOSTONLARI ASOSIDA KOMPOZITSIYA  
ISHLASHGA O'RGATISH**

Komoladdin Niyazov,  
Urganch davlat universiteti Tasviriy san'at va  
muhandislik grafikasi kafedrasida katta o'qituvchisi

Roza Ramanova  
Urganch davlat universiteti, "Dastgohli rangtasvir"  
yo'nalishi 4-bosqich talabasi

**Annotatsiya:**

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining Tasviriy san'at darslarida mazu bo'yicha mashg'ulotlar olib boriladi. Buyuk mutafakkirlar asarlariga kompozitsiyalar tuzish ham rejalangan bo'lib, uning maqsadi o'quvchilarni tasviriy san'at asoslari yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash, tevarak-atrofdagi go'zalliklarni ko'ra bilish va idrok etish hamda bu go'zalliklarni tasviriy san'at vositasida tez va ifodali tasvirlashga o'rgatishdan iboratdir. O'quvchilarni ijodkorlikka yo'naltirish ko'p tomonlama pedagogga ham bog'liqdir. Eng avvalo pedagog ijod qiluvchi, nazariy va amaliy malakaga ega bo'lgan, o'quvchilar bilan birgalikda ijod qila oladigan, tajribali pedagog rassom bo'lmog'i zarur.

**Kalit so'zlar:** Musavvir, kompozitsiya, Majolis un-nafois, Mufradot, Xisrav, Lison at-tayr, Xuroson.

Tasviriy san'atni o'rganayotgan o'quvchida estetik did rivojlanib boradi. Yoshlarimizning dunyoqarashi ham go'zallashib o'sadi. Musavvir ko'z ko'rib turgan moddiy olamni ijodiy tasavvurida qayta ishlab, tekislikda tasvirlaydi. Bo'yoqlar, chiziqlar va ular aralashmasidan foydalanib, dunyoning barcha manzaralarini aks ettiradi, uning markazida esa inson turadi. Musavvirlarimiz yaratgan har bir asarida muallif ichki ruhiy olami, dunyoqarashi, hayotga bo'lgan, atrofdagilarga bo'lgan munosabati yotadi. O'quvchi bu asarlarni ko'rib ma'naviy ozuqa oladi.<sup>1</sup> O'qituvchi mo'yqalam sohiblarining asarlarini tanishtirish mobaynida o'z o'quvchisi qalbida hayotga, ota - onaga, ustozlarga bo'lgan mehr-muhabbatini oshiradi.

Bobomiz Alisher Navoiy go'zallikni, nafis san'atni yuksak qadrlab, nafis san'at inson ma'naviy olami, kamoli uchun kalit ekanini ta'kidlaydi. U kishining yozgan she'rlaridan birining mazmuni bunday bizga yana bir shifo dorisi berilgan bo'lib, uni san'at deb ataydilar, go'zallik yaratuvchi san'atkorlar chizgan rasmlar-mo'jizakordir. Ular o'quvchi ruhiga mayin ta'sir qilish qudratiga ega. Bobomizning adabiy, tarixiy va falsafiy asarlarida go'zallik, nafis san'at haqidagi fikrlar to'lib-toshib yotibdi. Shu bilan birga uning adabiy-estetik qarashlari "Majolis un-nafois", "Mezon ul avzon" va "Mufradot" asarlarida yanada yorqin ifoda topgan.

Buyuk davlat arbobi va qomusiy olim Alisher Navoiy qoldirgan ma'naviy merosga barcha davrlar uchun muhim ahamiyatli ajoyib fikrlar borki, ular bugungi shiddatli taraqqiyot uchun

<sup>1</sup> Н.Ойдинов. Аждодларимиз санъати ва эътиқоди. Тошкент. "Ўқитувчи" 1992 й.

ham dolzarbdir. Ulug` shoirning yashashning ma`nosi, komil inson g`oyasi, kishi ruhiy dunyosi tasviri, odob-axloq tarbiyasi haqidagi purlukmat, dono fikrlari betakror tafakkur mevalaridir.

Alisher Navoiy dostonlari asosida kompozitsiya ishlashga o`rgatish jarayonida o`z o`zidan ma`lumki o`qituvchi o`quvchilarga Navoiy asarlaridan mutolaa qilib katta ta`surot qoldirgan qismlariga kompozitsiya tuzishni ma`lum qiladi. O`qituvchi albatta Navoiy asarlarini o`zi tanlab o`quvchilar uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo`lgan bo`limlarini namuna qilib ko`rsatishi lozim.

Masalan, Alisher Navoiyning "Xamsa"sidagi "Farhod va Shirin" dostoni asosida kompozitsiyalar tuzish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Chunki, dostonida komil inson tarbiyasi, komillik sari intilish, yetuk va barkamol inson g`oyalari yetakchilik qiladi. "Farhod va Shirin" dostonida shoir Farhod obrazi orqali yetuklikning oliy cho`qqisinitasvirlab beradi. Ma`lumki, hazrat Navoiy Sharq Uyg`onish davrining buyuk gumanisti, ilm-fan va ma`rifat homiysi edi. Uning inson, odamiylik, halqparvarlik, umuminsoniy qadriyatlar to`g`risidagi g`oyalari "Farhod va Shirin" dostonida o`z aksini topgan. Farhod yoshligidan o`zining aql-zakovati bilan ajralib turadi.

Xalq uchun qayg`urish, uning g`am-tashvishlariga sherik bo`lish, og`ir damlarda unga yordam berish, mardlik, shijoatkorlik, sahovatpeshalik, boylikka hirs qo`ymaslik-bularning bari Farhodga xos fazilatlar edi. Ahloqiy poklik, nafsni tiyish, jabr-zulm, adolatsizlik, haqsizlik va boshqa hayot qiyinchiliklariga qarshi kurashish Farhod insonparvarligining o`zagini tashkil etadi va komil inson sifatida shakllanishining asosi bo`lib xizmat qiladi.

Dostonida Farhodning insoniy fazilatlarini, xususan kamtarligi ham yuksak e`tirof bilan tilga olinadi. Zero, Farhod shunday ovoza bilimi, shunday cheksiz kuch-qudrati bilan o`zini alifbe o`qiydigan boladan ham kam tutar, bu kamtarlik faqat bilimda emas, o`z kuchini namoyish qilishda ham ko`zga tashlanib turardi. Shohlar uning eshigi tagida gadoyi bo`lgan holda, u gadolikni podshohlikdan afzal ko`rardi. Navoiy Farhodni bu borada ulug`lab, unga shunday ta`rif beradi:

Demonkim ko`ngli poku ham ko`zi pok,

Tili poku so`zi poku o`zi pok.

Ya`ni, men uning faqat ko`ngli poku ko`zi pok demayman, balki uning tili ham pok, so`zi ham pok, o`zi ham pokdir. Doston davomida Farhodddagi buyuk insoniy fazilatlar ulug`lanadi.

Navoiy dostonida Farhodni nihoyatda insonparvar, xalq dardini o`ylovchi, o`zini emas, o`zgalarning g`amini tortuvchi etib tasvirlaydi. Bunga misol tarzida Farhodning Salosil dev qo`rg`oniga bandi qilganlari va kishanlab tashlaganlari, uning esa Suqrot hakimdan o`rganganlarini ishga solib, zanjirdan ozod bo`lganligini keltirish mumkin.

Farhod yarim kechalarda o`zidagi hamma zanjirlarni va oldidagi hamma to`siqlarni ochib tashqariga chiqar, tog`u toshlarda faryod chekib yurib, yana qorong`u ketmasdan, odamlar uyqudan bedor bo`lmasdan o`z qamoq joyiga qaytib kelib, kuzatuvchilar bilib qolmasin uchun, yechilgan zanjirlarini qaytadan o`ziga solar edi. Chunki bu ish odamlar orasida ovoza bo`lib, Xisrav bu posbonlarni jazolashidan, o`zi tufayli bu odamlarning holi xarob bo`lishidan tashvishga tushar edi.<sup>2</sup>

<sup>2</sup> Ўзбекистон санъати. Тошкент "Шарқ" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти. 2001 й.

Alisher Navoiy asarlariga ishlangan mo`jaz rasmlar va rangorang nafis naqshlar XV- XVI asrlarda yaratilgan Sharq kitobat san`atining eng go`zal namunalaridandir. Ular Hirot “Buxoro, Shohruhiya, Tabriz kabi Xuroson va O`rta Osiyoning madaniyat markazlarida yashab, ijod etgan eng mohir san`atkorlar tomonidan yaratilgan.

Miniaturalar Alisher Navoiy dostonlari “Hayrat al-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab`ai sayyora”, “Saddi Iskandariy”, “Lison at-tayr” va lirik she`rlar to`plami– “Devon”lar mazmuni asosida ishlangandir. Ma`rifatparvar, erksevar, olijanob g`oyalar egasi bo`lgan Navoiy qahramonlari miniaturalarning ham asosiy obrazlaridir. Miniaturalarning ko`tarinki, hayotiy va obrazlari Navoiy g`oyalariga monand. Navoiy ijodiy metodining asosini tashkil etgan realizm shoir asarlariga ishlangan rasmlarga xosdir.

Xulosa qilib aytganda, Hazrat Navoiy bobomiz bizga ilmiy-adabiy, ijtimoiy-falsafiy, ma`naviy-axloqiy va siyosiy sohada boy meros qoldirdi. Alisher Navoiy asarlaridagi komil inson g`oyasi va insonparvarlik qadriyatlari bizning barkamol avlod bo`lib voyaga yetishimizda, milliy ongimizni o`stirishimizda yetakchilik qilib, ma`naviy bilimimizni oshiradi va turli vayronkor va buzg`unchi g`oyalarga qarshi eng muhim qurolimizga aylanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Н.Ойдинов. Аждодларимиз санъати ва эътиқоди. Тошкент.” Ўқитувчи” 1992 й.
2. Ўзбекистон санъати. Тошкент “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти. 2001 й.